

Uyimiz Qaratqich kelishigi



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Biz shahar markazidagi baland va chiroyli ko'p qavatli uyda yashaymiz. Uyimiz zamonaviy uslubda qurilgan. Unda uchta xona bor: mehmonxona, yotoqxona va bolalar xonasi. Derazalarimizdan shahar manzarasi ko'rinadi. Hovlidagi bolalar o'yin maydonchasi hamisha gavjum. Ko'p qavatli uyimiz juda qulay va shinam.

Biz har doim uyimizning xonalarini toza saqlaymiz.



Qaratqich kelishigidagi so'z **kimning?**, **nimaning?**, **qayerning?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Qaratqich kelishigining qo'shimchasi **-ning**. Bu kelishik shaxs yoki narsa-buyumning kimga, nimaga tegishli ekanini bildiradi.

Masalan: *uyning tomi, xonaning derazasi, Anvarning xonasi.*



2-topshiriq. Maqollarni o'qing. Mazmunini tushuntirib bering.

1. O'z uying – o'lan to'shaging.
2. Toza uyga gard qo'nmas.
3. O'z uyingni o'zing asra.
4. Har qush o'z uyasiga qarab uchadi.



1-mashq. So'zlarga mos qo'shimchalarni qo'shib, gaplarni ko'chiring.

Uyimiz(-ni, -ning) xonalari katta. Mehmonxona(-ga, -ning) gilam to'shalgan. Devori(-ga, -da) chiroyli rasm osilgan. Oshxona(-ning, -da) o'ng tomonida idishlar javoni bor. Ayvon(-da, -ga) oq rangli parda osilgan. Bolalar xonasi(-ga, -ning) chap tomonida kompyuter stoli turibdi.



2-mashq. Rasmlar asosida uy qismlari nomini yozing.
Ular ishtirokida gaplar tuzing.



3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Uyingiz qaysi ko'chada joylashgan?
2. Siz nechanchi uyda yashaysiz?
3. Uyingiz necha qavatli?
4. Sizning xonadoningiz nechanchi qavatda?
5. Siz nechanchi xonadonda yashaysiz?
6. Uyingiz atrofida qanday binolar bor?
7. Uyingiz yonida bolalar maydonchasi ham bormi?



3-mashq. Chap ustundagi so'zlarga o'ng ustundagi so'zlardan mosini tanlab, so'z birikmalari hosil qiling.

uyning
yo'lakning
mehmonxonaning
yotoqxonaning
bolalar xonasining
oshxonaning
yuvinish xonasining

o'yinchoqlari
tomi
yotog'i
idishlari
tozalash vositalari
zinasi
jihozlari



"Tasavvurimdagi uy" mavzusida rasm chizing. Shu asosda matn tuzing.

